

ZAMONAVIY OILA TUSHUNCHASI, OILANING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI VAZIFASI VA AHAMIYATI

Yaqubova Nilufar Ulug'bek qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo`rg`on filiali 3-bosqich talabasi

yaqubovanilufar0607@gmail.com

Mustafoqulova Marjona To`lqin qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo`rg`on filiali 3-bosqich talabasi

marjonazikiryoyeva@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola hozirgi zamon oilalarining tipologiyasi va funksiyalarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Shu bilan birgalikda maqolada oilalarning funksional imkoniyatlariga ko‘ra darajalari hamda noto‘liq oilalar shakllanishining o‘ziga xos ko‘rinishlariga ham to‘xtalib o‘tilgan.

Xususan, maqolada oila ma’lum bir tuzilma va xususiyatlarga ega tizim sifatida ko‘rib chiqiladi. Oila ichidagi munosabatlар va oila hamda atrof-muhit o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi chegaralarning mavjudligi;

Shuningdek, maqolada oilaning asosiy funksional, muammoli, disfunktional, biologik-reproduktiv iqtisodiy, tarbiyaviy va ijtimoiy, emotsiyonal va psixogigiyenik, himoya funksiyasilarini atroflicha talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy oila, oila tipologiyasi, ahil oila, funksional oilalar, muammoli oilalar, iqtisodiy funksiya, emotsiyonal va psixogigiyenik funksiya.

KIRISH

Oila murakkab ijtimoiy guruh bo‘lib, biologik, ijtimoiy, axloqiy, ideologik va psixologik munosabatlarning uzviy birlashuvi natijasida vujudga keladi. Psixologiya fanining yosh sohalaridan biri – oila psixologiyasi hisoblanadi. Oila psixologiyasining rivojlanishi va unga turli sohalar mutaxassislari – psixiatrlar, psixoterapevtlar, o‘qituvchilar, shifokorlar hamda ijtimoiy xodimlar tomonidan qiziqishning ortishi zamonaviy oila boshidan kechirgan inqiroz tufayli yuzaga keladi. Adabiyotlar tahlilida zamonaviy oila inqirozi demograflar fikricha, institutsional inqiroz, ya’ni oilaning ijtimoiy institut sifatidagi inqirozi, birinchi navbatda, eng muhim va asosiy funksiyalardan biri reproduktivlik hisoblangan oilaning “jamiyatning bir qismi” deb atalishida namoyon bo‘ladi.¹

¹ Akramova F.A. O‘zbekistonda oilaviy psixologik xizmatning ijtimoiypsixologik muammolari. Psixologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent. 2022. – 67 b.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri yurtimizda oilalar mustahkamligini ta'minlash, oila institutining tarixiy ildizlarini yuzaga chiqarish, oilaviy qadriyatlarni rivojlantirishdan iborat. Shu ma'noda o'tgan davr mobaynida davlatimiz tomonidan yurtimizdagи oilalar, ayniqsa, katta hayot ostonasiga endi qadam qo'yayotgan yosh oilalar mustahkamligi, ularning jamiyatning bir bo'lagi sifatida mustaqil shakllanib borishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oilaviy qadriyatlar tarixiy sinovlarga bardosh bergan, xalqimizning milliy manfaatlarini o'zida mujassamlashtirgan, zamonaviy taraqqiyot talablariga to'la javob bera oladigan, asrlar o'tgani sayin qadrqimmati yanada oshib, sayqallanib boradigan g'oyalardir. Dunyodagi har bir xalq o'z qadriyatlariga suyanib ularga amal qilib, asrab-avaylab yashar ekan, oilada bunday vazifani ado etishda ayollarning alohida o'rni bor. Zero, oila kishi tafakkuri, ma'naviyati shakllanadigan, uning jamiyatdagi o'rnini belgilaydigan, xalq qadriyatlarini asrab-avaylaydigan tabarruk maskan, muhim ijtimoiy institutdir. Har qanday mamlakat hayotida yuz beradigan ijobiy o'zgarish, demokratik jarayonlar samarasи, ezgu umidlar, avvalo, oilalarda namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda oila institutini takomillashtirishning asosiy maqsadi zamonaviy oilani barpo etishdan iboratdir. Qanday oila zamonaviy oila hisoblanadi? Avvalo, shu savolga javob topmoq lozim. Bizning nazarimizda, oila kompetensiyasi komponentlarini o'zida to'liq namoyon etadigan, umuminsoniy va milliy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlар, zamonaviy ilg'or tajribalar, baxtlilik indeksi talablari asosida davlat va jamiyat rivojiga o'z tinchligi, farovonligi va mustahkamligi bilan hissa qo'shadigan oila zamonaviy oila demakdir. Qaysi jamiyatda barpo etiladigan bo'lsa, o'sha jamiyat talablariga monand shakllanadigan oila zamonaviy oila hisoblanadi. Bugungi kun zamonaviy oilasi quyidagi tamoyillarga javob bermog'i lozim: – o'zaro muhabbat, biologik moslik asosida oila barpo etish; reproduktiv va jinsiy yetuklik; – oila va jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligi, barqarorligi uchun fidokorlik, tashabbuskorlik va ijodkorlik; – milliy oilaviy qadriyatlarga sadoqatlilik; – sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit yaratishning malaka va ko'nikmalariga ega bo'lish; – kommunikativ kompetentlik mezonlariga rioya etish; – oilaviy tarbirkorlik madaniyatiga ega bo'lish; – "O'z bolangizni, o'z uyingizni, o'z Vataningizni ko'z qorachig'idek asrang!" shioriga fidoyilik; – "halollik vaksinasi" bilan emlangan bo'lish va "jaholatga qarshi-ma'rifat" g'oyasiga amal qilish; – oilaparvarlik, mehnatsevarlik; xalqlararo, millatlararo totuvlikka rioya etish. Shuningdek, tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, zamonaviy oilaning o'ziga xos andozasi mavjud bo'lib, u shaklan va mazmunan ko'pqirrali va keng qamrovli bo'lishi tabiiydir. O'zbekistonda "Uchinchi Renessans davri"ning shiddat bilan boshlanishi zamonaviy oilalarning ham shiddat bilan shakllanishi uchun zamin bo'la oladi. Albatta, uning o'ziga xos andozasi mavjud bo'lib, u mazmunan quyidagi ustuvor yo'naliishlarni o'z ichiga oladi: – oilaning

jamiyat va davlat himoyasida ekanligi, uning huquqiy asoslari; – oilaning iqtisodiy jihatdan farovonligi; – oilaning ijtimoiy jihatdan barqarorligi; – oilaning axloqiy-ma’naviy jihatdan shakllanganligi; – oilaning to‘liq bo‘lishi; – oilaning ta’limiy jihatdan qoniqarli darajasi; – oilaning demografik jihatdan mustahkamligi; – oilaning ma’naviy va jismoniy salomatligi. Bo‘lajak kelin-kuyovlar mazkur ustuvor yo‘nalishlar zamirida zamonaviy oilaviy hayotga tayyorlanmog‘i zarur. Yoshlar zamonaviy oila qurishda “Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat”, “Oila – jamiyat va davlat himoyasida”, “Farovon oila – farovon jamiyat asosi”, “Oila – ma’naviyat o‘chog‘i”, “Oila – jamiyat ko‘zgusi” kabi konseptual g‘oyalarga asoslanib o‘zbek oilasi andozasining tarkibiy qismlarining ustuvor yo‘nalishlari borasidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarini yosh jihatdan bosqichma-bosqich shakllantirib borish talab etiladi. Shu bois Respublikamiz mahalla fuqarolar yig‘inlarida oilalardagi nizo, ziddiyat, tazyiq, notinchliklar hamda ajrimlarning oldini olish maqsadida Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyalari faoliyat olib bormoqdalar. O‘zbekistonda “Uchinchi Renessans davri”ning shiddat bilan boshlanishi zamonaviy oilalarning ham shiddat bilan shakllanishi uchun zamin yaratadi. Bu jarayonda dunyo xalqlari o‘zbek oilasining, o‘zbek xalqi esa dunyo xalqlari oilasining tajribasini bilishga qiziqishlari ortib bormoqda. Darhaqiqat, dunyo miqyosida mavjud turli millat va xalqlarning oila qurish va uni mustahkamlashga oid qarashlari va munosabatlari turlicha bo‘lib, ular boshqa millat oilalariga o‘z ijobiy yoki salbiy ta’sirini ko‘rsatishi mumkin. Ayni zamonda ularda oila borasida oddiy holga aylangan ba’zi holatlar bizning zamonaviy oilalarimiz shakllanishiga salbiy ta’sir etish ehtimoli mavjud bo‘lib, ularni quyidagicha turkumlash mumkin:

- oila muqaddas qo‘rg‘on ekanligiga nisbatan munosabatlarning yuzakiligi; – yigit va qizlar munosabatlarida, turmush qurishda, oila bo‘lib yashash tarzida, ajrim holatlarida o‘ta erkinlik, ota-onalik fikriga tayanmaslik; – nikohga oliy qadriyat sifatida qaramaslik (aksariyat oilalar fuqarolik yoki shar‘iy nikoh asosida yashashadi); – jinsiy munosabatning o‘smyrlik yoshidan juda erta boshlanishi; – yosh qizlarda bokiralikni saqlash majburiyatining yo‘qligi; – erkin jinsiy aloqalarga yo‘l ochiqlik va ular uchun maxsus sharoitlar yaratilganlik; – oila qurishga nisbatan milliy qadriyatlarni nuqtayi nazaridan emas, balki boshqa xalqlar, millatlar urf-odatlariga qiyosiy taqlid qilish odatinining paydo bo‘lishi; – u yoki bu masala bo‘yicha qaror qabul qilishda er-xotinning o‘zaro kelishmasdan mustaqil qaror qabul qilishi; – kiyinish, ota-onalik bo‘lish, yashash tarzini tashkil etish, farzandlik, qarindosh-urug‘chilik burch hamda vazifalarini bajarishda sharqona odob-axloqdan keskin yiroqlik; – oiladagi har bir shaxsning o‘zi uchun individual turmush tarzi asosida hayot kechirishi; – bir jinsliklar turmushiga e’tiborsizlik; – oila ma’naviy-axloqiy asoslarining qadrsizligi; – guruhli jinsiy aloqalar; – yoshlarni oilaviy hayotga tayyor bo‘lmadan oila qurishi va boshqalar. Darhaqiqat, bunday salbiy ta’sirlardan xoli zamonaviy oila qurishning asosiy mezoni

uning ma'naviyaxloqiy poydevor asosiga qurilishi hisoblanadi. Shundagina u mustahkam va baxtli bo'lishi mumkinligini tadqiqotlar va hayotiy tajriba ko'rsatmoqda. Zamonaviy oilaning ma'naviy-axloqiy asoslari umuminsoniy va milliy qadriyatlar hisoblanadi. Chunki oilaning ma'naviy-axloqiy negizlarini yanada rivojlantirish, azaliy qadriyatlarini asrab-avaylash va mustahkamlash zamirida jamiyatning ma'naviy takomillashuviga erishiladi. Oilada ma'naviy muhitni keng qaror toptirish, milliy mentalitetimizga mutlaqo yot bo'lgan turli xil zararli ta'sirlarga qarshi turish oilaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini yanada oshiradi

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Ayni zamonda oila yanada dinamik shakllanishni ifodalaydi va avvalgi davrdan farqli o'laroq, ijtimoiy omillar bilan kamroq barqarorlashadi. Turmush o'rtoqlarning shaxsiy motivlari va kommunikativ qobiliyatlarining ahamiyati sezilarli darajada oshdi va ikki kishini birgalikda yashashga majburlash, ularga ijtimoiy me'yor va majburiyatlar vositasi bilan ta'sir qilish deyarli imkonsiz bo'lib qoldi. Rasmiy ro'yxatga olingan nikohlar sonining kamayishi va erkin ittifoqda yashash sonining ortishi ijtimoiy me'yor va qoidalarning tartibga solish ta'sirining zaiflashishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, bu holat insonlar ongida oilaga, hayotiy faoliyati ko'proq darajada ularning shaxsiy mas'uliyatiga bog'liq bo'lgan institut sifatidagi munosabatning shakllanishini aks ettirishi mumkin.² Shunday qilib, zamonaviy hayotning xususiyati zamonaviy oilada uning faoliyat ko'rsatish xossalarni tahlil qilishni, hayot davrining bosqichlaridan o'tuvchi va me'yoriy hamda g'ayri-me'yoriy inqirozlarni boshdan kechirishni talab etuvchi transformatsion jarayonlarga olib keldi. Adabiyotlar tahlilida oila ma'lum bir tuzilma va xususiyatlarga ega tizim sifatida ko'rib chiqiladi. Har qanday tizim singari, u quyidagi bir qator belgilar bilan tavsiflanadi: – o'zaro bog'liqlik: tizimning alohida elementlarining o'zaro ta'siri; – xolizm: tizimning alohida elementlari bir butunga birlashib, asl individual xususiyatlardan farq qiladigan yangi xususiyatlarga ega bo'ladilar; – asosiy parametrlari quyidagilardan iborat bo'lgan tarkibiy tashkilot ierarxiya yoki struktura elementlarining subordinatsiyasi; – oila ichidagi munosabatlarni va oila hamda atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi chegaralarning mavjudligi; – uyg'unlik; – oilaning rolli tuzilishi; – tizim ichidagi jarayonlarning o'ziga xosligi (sirkulyar, spiralsimon; davriy, uzlucksiz); – dinamizm, yoki taraqqiy etish qobiliyati; – o'z-o'zini tashkillashtirish qobiliyati: oilaning yaxlit, muvozanatli tizim bo'lib qolishi va buzilmasligiga imkon beruvchi oila ichidagi kuchlarning mavjudligi; – gomeostaz va rivojlanish dialektikasi.³ Oilani tizim

² Arapbayeva D.K., Arapbayeva D.K. Yoshlarning oilaviy hayotga moslashuvida ma'naviy-ahloqiy masalalar. "Zamonaviy ta'lim" jurnali №5 – Toshkent, 2016. – B. 36-41. <https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlarning-oilaviy-ayotga-moslashuvidamanaviy-ahlo-iy-masalalar/viewer>

³ G'oziyev E.G'. Sotsial psixologiya. – Toshkent: Noshir, 2012. – 316 b.

sifatida tahlil qilishning murakkabligi har qanday tizim boshqa, kattaroq tizimlarning bir qismi ekanligi hamda ular bilan bevosita o‘zaro munosabat va o‘zaro ta’sirda ekanligini hisobga olish zaruratidadir. Biz oila masalasini yoritishda oila tipologiyasi va funksiyalarini belgilashdagi adabiyotlar tahliliga e’tiborimizni qaratmoqchimiz. Oila a’zolarining kattaligi va soniga qarab (shuningdek, avlodlar bo‘linishi), nafaqat ota-onalar, balki ularning farzandlari o‘rtasidagi munosabatlarga asoslangan, shuningdek, individual oila funksiyalarini bajarishga asoslangan kabi har xil turlarga, mezonlarga ajratishimiz mumkin.⁴

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Oila bilan ishlash, birinchi navbatda, uni tushunishni nazarda tutadi. Oilaga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri uning madaniy va etnik kelib chiqishidir. Bolani tarbiyalashda oilani yuritishning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi va ularning o‘z vazifalarini bajarishi muhimdir. Mualliflar oilalarni funksional imkoniyatlariga ko‘ra quyidagilarga ajratadilar: funksional oilalar – bu muammolardan ta’sirlanmagan de facto oilalar. Bu oilalar bolaning hayoti va farovonligiga to‘g‘ri g‘amxo‘rlik qiladi; muammoli oilalar – bu ba’zi yoki barcha funksiyalarda buzilishlar mavjud bo‘lgan oilalar. Biroq bu buzilishlar bolaning oila tizimi va rivojlanishiga tubdan xavf tug‘dirmaydi. Ushbu “to‘sinq”larga qaramay, oila o‘z kuchlari va vaqtqi-vaqtqi bilan tashqi aralashuv orqali o‘z muammolarini hal qila oladi va qoplaydi, bir martalik yoki qisqa muddatli, disfunksional (nosog‘lom) oilalar – oilaga bevosita tahdid soladigan jiddiy buzilishlarga ega oilalardir. Bu tabiatning buzilishlari endi oilani mustaqil boshqara olmaydi, shuning uchun oilaga tashqaridan yordam berish kerak; disfunksional oilalar – bu o‘z vazifalarini bajarishni butunlay to‘xtatadigan va bolaga jiddiy zarar yetkazadigan yoki unga xavf tug‘diradigan oilalar. Zaif oilalarni qo‘llab-quvvatlash (tuzatish) bu borada ma’nosiz va keraksizdir. Yagona yechim – bolani muqobil oilaviy parvarishga jalb qilish. Oilaning asosiy vazifalariga e’tibor qaratish kerak: bolalarni tarbiyalash (birinchi navbatda), keyin kattalar oila a’zolarining ehtiyojlarini qondirishlari zarur.⁵

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Oila uzlucksiz, uzviy ravishda ko‘plab ehtiyojlarni qondirib borar ekan, unga mutanosib tarzda funksiyalar miqdori hukm surib turadi. Oila o‘z funksiyalarini bajarib borishi nafaqat uning a’zolari uchun, balki butun jamiyat uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Oila o‘z taraqqiyotining

⁴ Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 170 b.

⁵ Oila ensiklopediyasi [Matn] / Tuzuvchilar: Akramova F.A., Bilolova Z.B., Jovliyev I.S. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2019. – B. 240.

turli bosqichlarida tavsiflab o‘tilgan funksiyalar ustuvor o‘ringa ko‘tariladi, mazkur funksiyalarning o‘rin almashishi jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq ekanligini alohida ta’kidlab o‘tish zarurdir. Oilaning funksiyalarini, alohida rivojlanish jarayonini tahlil qilsak, u holda uning har biri jamiyat taraqqiyotini ham, madaniy o‘zgarishlarni ham o‘zida mujassamlashtiradi. Hozirgi zamon oilasi – qonun, odob-axloq asoslariga quriladi. Bu esa o‘z navbatida, jamiyatning rivojlanishiga hamohang holda rivojlanib boraveradi, jamiyatning o‘zgarishlariga qarab, u ham tabiiy ravishda o‘zgaraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akramova F.A. O‘zbekistonda oilaviy psixologik xizmatning ijtimoiypsixologik muammolari. Psixologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent. 2022. – 67 b.
2. Arapbayeva D.K., Arapbayeva D.K. Yoshlarning oilaviy hayotga moslashuvida ma’naviy-ahloqiy masalalar. “Zamonaviy ta’lim” jurnali №5 – Toshkent, 2016. – B. 36-41. <https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlarning-oilaviy-ayotga-moslashuvidanaviy-ahlo-iy-masalalar/viewer>
3. G‘oziyev E.G’. Sotsial psixologiya. – Toshkent: Noshir, 2012. – 316 b.
4. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 170 b.
5. Oila ensiklopediyasi [Matn] / Tuzuvchilar: Akramova F.A., Bilolova Z.B., Jovliyev I.S. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2019. – B. 240.